

O‘QUVCHILARNING XULQ-ATVORI, EMOTSIONAL HOLATI VA SHAXSLARARO MUNOSABATLARINI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISH ASOSLARI

Sultonova Madina Axmad qizi

Buvayda tumani 21-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarning xulq-atvori, emotsional holati va shaxslararo munosabatlarini psixologik tahlil qilishning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. O‘quvchi shaxsining shakllanish jarayonida ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, ta’lim jarayoni va individual psixologik xususiyatlarning ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, xulq-atvordagi o‘zgarishlarni aniqlash, emotsional barqarorlikni shakllantirish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda sog‘lom shaxslararo munosabatlarni tashkil etishda psixologik diagnostika, profilaktika va korreksion ishlarning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada xorijiy va mahalliy psixolog olimlarning shaxs rivojlanishi, emotsiyalar va ijtimoiy munosabatlarga oid nazariy qarashlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *o‘quvchi shaxsi, xulq-atvor, emotsional holat, shaxslararo munosabatlar, psixologik tahlil, psixodiagnostika, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ ko‘nikmalar, korreksion faoliyat, psixologik qo‘llab-quvvatlash.*

Bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning nafaqat intellektual rivojlanishini ta’minlash, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional jihatdan sog‘lom shakllanishiga zarur shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Chunki o‘quvchining ta’lim faoliyatidagi muvaffaqiyati uning bilish jarayonlari bilan bir qatorda xulq-atvori, ruhiy-emotsional holati va atrofdagilar bilan o‘rnatadigan shaxslararo munosabatlari bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. O‘quvchi shaxsining rivojlanish jarayoni murakkab psixologik jarayon bo‘lib, unda yosh davri xususiyatlari, oilaviy muhit, ijtimoiy munosabatlar, ta’lim-tarbiya jarayoni hamda individual psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktab davrida bolalarda o‘zini anglash, emotsiyalarni boshqarish, ijtimoiy qoidalarga moslashish, tengdoshlari bilan samarali muloqot o‘rnatish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va tahlil qilish o‘quvchining keyingi shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning xulq-atvor xususiyatlarini o‘rganish ularning ichki ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlari hamda ijtimoiy muhitga munosabatini aniqlash imkonini beradi. Emotsional holatni tahlil qilish esa xavotirlanish, stress, o‘ziga ishonchsizlik, agressivlik kabi psixologik holatlarning sabablarini tushunish va ularni bartaraf etishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan

birga, shaxslararo munosabatlarni o‘rganish o‘quvchilarning jamoaga moslashuvi, kommunikativ qobiliyatlari va ijtimoiy faolligini rivojlantirish uchun zarur hisoblanadi.

Zamonaviy ta‘lim sharoitida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning psixologik holatini tizimli tahlil qilish hamda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqolada o‘quvchilarning xulq-atvori, emotsional holati va shaxslararo munosabatlarini psixologik tahlil qilishning nazariy asoslari, mazmuni hamda ta‘lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi.

O‘quvchilarning xulq-atvori, emotsional holati hamda shaxslararo munosabatlarini psixologik tahlil qilish masalalari O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va psixologik qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son “2022–2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida umumiy o‘rta ta‘lim tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarning qobiliyat va individual xususiyatlarini rivojlantirish, ta‘lim muhitini yaxshilash hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish vazifalari belgilangan. Bu esa o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish va qo‘llab-quvvatlash jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ–241-son “Xalq ta‘limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim olishi uchun qulay sharoit yaratish, ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta‘minlash bo‘yicha vazifalar belgilangan bo‘lib, bu o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash zaruratini kuchaytiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF–79-son “Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida maktab ta‘limi tizimini rivojlantirish, ta‘lim jarayoni ishtirokchilari uchun samarali tashkiliy-pedagogik muhit yaratish, ta‘lim tizimida boshqaruv va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ–5050-son “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida voyaga yetmaganlar bilan ishlash, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida profilaktik hamda tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, o‘quvchilarning xulq-atvori bilan bog‘liq muammolarni oldini olishga oid vazifalar belgilangan. Ushbu hujjatlar o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash, emotsional barqarorligini ta‘minlash, xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida tahlil qilish va sog‘lom shaxslararo munosabatlarni shakllantirishning huquqiy asoslarini tashkil etadi.

O‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishida uning xulq-atvori, emotsional holati hamda shaxslararo munosabatlari muhim psixologik ko‘rsatkichlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchining bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, ijtimoiy faolligi va shaxs sifatida shakllanishi uning ichki psixologik holati hamda atrofdagi insonlar bilan o‘zaro munosabatlariga bevosita bog‘liqdir.

Xulq-atvor shaxsning tashqi muhitga munosabati, ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari va individual psixologik xususiyatlarining amaliy ifodasi hisoblanadi. O‘quvchining xulq-atvori uning oilaviy tarbiyasi, ijtimoiy muhiti, yosh davri xususiyatlari va ta’lim jarayonidagi tajribalari asosida shakllanadi. Ijobiy xulq-atvor mas’uliyatlilik, intizom, mustaqil fikrlash, o‘zini nazorat qilish va boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kabi sifatlarda aks etadi. Ayrim hollarda o‘quvchilarda tajovuzkorlik, tortinchoqlik, o‘ziga ishonchsizlik, befarqlik, nizolarga moyillik kabi xulq-atvor muammolari kuzatilishi mumkin. Bunday holatlar bolaning ichki kechinmalari, emotsional ehtiyojlari yoki ijtimoiy muhitdagi qiyinchiliklari bilan bog‘liq bo‘lib, ularni o‘z vaqtida aniqlash va psixologik jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning emotsional holati ularning ruhiy barqarorligi, his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish qobiliyati bilan belgilanadi. Ijobiy emotsional muhit o‘quvchida bilim olishga qiziqish, o‘z imkoniyatlariga ishonch, faol muloqot va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Aksincha, qo‘rquv, xavotir, stress va ruhiy zo‘riqish holatlari o‘quvchining o‘zlashtirishi, ijtimoiy faolligi hamda shaxslararo aloqalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shaxslararo munosabatlar esa o‘quvchining tengdoshlari, pedagoglar va atrofidagi insonlar bilan muloqot qilish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy-psixologik aloqalar tizimidir. Muloqot jarayonida o‘quvchilarda hamkorlik qilish, fikr almashish, nizolarni hal qilish, o‘z fikrini ifodalash va boshqalarni tushunish kabi kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanadi. Shu sababli o‘quvchilarning xulq-atvori, emotsional holati va shaxslararo munosabatlarini tizimli o‘rganish ularning individual ehtiyojlarini aniqlash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik muammolarning oldini olish hamda sog‘lom ta’lim muhitini yaratish imkonini beradi.

O‘quvchilarning xulq-atvori, emotsional holati hamda shaxslararo munosabatlarini tadqiq etish psixologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu masala turli davrlarda ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotchilar shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muhitning ta’siri, emotsional jarayonlar hamda insonlararo munosabatlarning shakllanish mexanizmlarini turli ilmiy yondashuvlar asosida izohlab berganlar.

Xulq-atvor shakllanishining nazariy asoslari J.B.Uotson, B.F.Skinner, A.Bandura kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. J.B.Uotson xulq-atvorni tashqi muhit ta’sirida shakllanuvchi jarayon sifatida tushuntirib, bixeviorizm nazariyasiga asos soldi. B.F.Skinner

esa xulq-atvorni mustahkamlash va rag‘batlantirish mexanizmlari orqali boshqarish mumkinligini asoslab berdi. A.Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasida esa bolalar xatti-harakatlari kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy tajriba orqali shakllanishi ta’kidlangan. Shaxsning rivojlanishi va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi masalalari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn tadqiqotlarida muhim o‘rin egallaydi. L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit, muloqot va faoliyatning yetakchi rolini asoslab bergan. A.N.Leontyev faoliyat nazariyasi orqali shaxsning xatti-harakatlari ehtiyoj va motivlar tizimi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatgan. S.L.Rubinshteyn esa shaxs va faoliyat birligi tamoyilini ilgari surib, inson xulq-atvorini uning ongli faoliyati bilan bog‘liq holda tahlil qilgan.

O‘quvchilarning emotsional holati, hissiy rivojlanishi va shaxsiy xususiyatlarini o‘rganishda K.Izard, P.Ekman, D.Goleman tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. K.Izard emotsiyalar nazariyasida asosiy hissiy holatlar va ularning shaxs rivojlanishidagi rolini tahlil qilgan. P.Ekman inson emotsiyalarining namoyon bo‘lish shakllari hamda ularning universal xususiyatlarini o‘rgangan. D.Goleman esa emotsional intellekt tushunchasini rivojlantirib, insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqalar bilan samarali munosabat o‘rnatishdagi ahamiyatini ko‘rsatgan. Shaxslararo munosabatlar va muloqot jarayonlarini ilmiy tadqiq etishda B.G.Ananyev, G.M.Andreyeva, A.A.Bodalev kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega. Ular shaxslararo idrok, muloqot madaniyati, guruhdagi munosabatlar va ijtimoiy moslashuv jarayonlarining psixologik mexanizmlarini o‘rganganlar. O‘zbek psixolog olimlaridan E.G.G‘oziyev, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, Z.T.Nishonovalarning tadqiqotlarida o‘quvchi shaxsining shakllanishi, yosh davrlari psixologiyasi, shaxslararo munosabatlar, oila va ta’lim muhitining bolaning psixologik rivojlanishiga ta’siri masalalari yoritilgan. Mazkur ilmiy qarashlar o‘quvchilarning xulq-atvori, emotsional holati va shaxslararo munosabatlarini kompleks tahlil qilish, ularning psixologik rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda ta’lim jarayonida samarali psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilarning xulq-atvori, emotsional holati hamda shaxslararo munosabatlarini amaliy jihatdan o‘rganish ta’lim muhitida yuzaga keladigan psixologik muammolarni erta aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va samarali psixologik yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Ushbu jarayon o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlarini aniqlash, ijtimoiy moslashuv darajasini baholash hamda sog‘lom rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan kompleks faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliy faoliyatning dastlabki bosqichi o‘quvchilarni psixologik diagnostika qilishdan iborat bo‘lib, bunda kuzatish, suhbat, anketa, test va sotsiometrik metodlardan foydalaniladi. Mazkur metodlar yordamida o‘quvchilarning xarakter

xususiyatlari, emotsional barqarorligi, o‘ziga bo‘lgan munosabati, tengdoshlari bilan muloqot darajasi hamda jamoaga moslashish xususiyatlari aniqlanadi.

Xulq-atvorni psixologik tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarda kuzatiladigan intizomdagi o‘zgarishlar, tajovuzkorlik, tortinchoqlik, ijtimoiy faollikning pasayishi yoki muloqotdagi qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari o‘rganiladi. Bunda bolaning oilaviy muhiti, sinf jamoasidagi mavqeyi, individual ehtiyojlari va motivatsion xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratiladi. O‘quvchilarning emotsional holatini o‘rganishda xavotirlanish darajasi, stressga chidamlilik, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyati hamda o‘z-o‘zini baholash xususiyatlari tahlil qilinadi. Amaliyotda emotsional qiyinchiliklarga ega o‘quvchilar bilan individual suhbatlar, psixologik maslahatlar, rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar va korreksion treninglar tashkil etiladi.

Shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan amaliy ishlar o‘quvchilarning muloqot madaniyati, hamkorlik qilish qobiliyati va jamoada o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. Guruhiy treninglar, rolli o‘yinlar, kommunikativ mashqlar hamda ijtimoiy-psixologik treninglar orqali o‘quvchilarda o‘z fikrini erkin ifodalash, boshqalarni tinglash, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bundan tashqari, o‘quvchi shaxsini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. O‘quvchining xulq-atvori yoki emotsional holatidagi o‘zgarishlarni bartaraf etishda oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi uzviy hamkorlik samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning xulq-atvori, emotsional holati va shaxslararo munosabatlarini amaliy tahlil qilish ularning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, psixologik muammolarning oldini olish va ijobiy ta’lim muhitini yaratishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ–241-son “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF–79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

4 Bandura A. Social Learning Theory. – New Jersey: Prentice Hall, 1977.

5. Выготский Л.С. Психология развития человека. – Москва: Эксмо, 2005.

6. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975.
7. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2002.
8. Изард К. Психология эмоций. – Санкт-Петербург: Питер, 1999.
9. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
10. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2001.
11. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2010.
12. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
13. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
14. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2008.
15. Myers D. Social Psychology. – New York: McGraw-Hill Education, 2013.